

**“SHARQ YULDUZI”**

***Jaxongirova Mubiyna***

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti  
san’atshunoslik:musiqashunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistri*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada “El-yurt umidi” stipendiyasi g’olibi Rashidova Madina xususida bo‘lib, uning qisqa avtobiografiyasi va bugungi kundagi ta’lim olish jarayoni xususida so‘z yurtiladi.

**Kalit So‘Z:** musiqa, san’at, gaboy, stipendiya, jamg’arma, musiqashunoslik, g’alaba, o‘zbekiston.

O‘zbekiston Respublikasida yaratilayotgan keng ko‘lamli islohotlar rivojlanishlar yoshlar kelajagi ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Ayniqsa ta’lim san’at sohasida yetuk kadrlar tayyorlash maqsadida yoshlar uchun xar yili koplab mablag’lar imkoniyatlar shart sharoitlar davlatimiz tomonidan yaratib beriladi.

Misol tariqasida “El-yurt umidi” jamg’armasi tomonidan yoshlar uchun amalga oshirilayotgan ishlarga to‘xtalib o‘tamiz. Jamg’arma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunadigan mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha „El-yurt umidi“ jamg’armasi etib tashkil etilgan. Jamg’arma xorijda stipendiatlarning malaka oshirishi, stajirovkasi va o‘qishini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Prezidentining „Iste’dod“ jamg’armasining huquqlari, majburiyatları va shartnomalari, shu jumladan xalqaro shartnomalari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.<sup>1</sup> Bugungi kunga qadar ushbu imkoniyatdan o‘zbekistonning ko‘plab talaba yoshlari o‘rinli foydalanib kelishmoqda. Xususan “El-yurt umidi” jamg’armasi stipendantlaridan biri, Amerikaning Calarodo shtatida joylashlgan universiteti magistratura bosqichi talabasi Rashidova Madina, san’at sohasi bo‘yicha tahsil olib kelmoqda.

Rashidova Madina 2001-yil 14-dekabrda Qashqadaryo viloyati Chiroqchi

---

<sup>1</sup> [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz)

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

tumanida tug‘ilgan. 4-sinfgacha Qashqadaro viloyati Chiroqchi tumanidagi 28-umumiy o‘rtalim maktabida oddiy sinfda tahsil olgan. 5-sinfdan Toshkent shahri Chilonzor tumanida joylashgan hozirgi O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Harbiy Musiqa Akademik Litseyiga o‘qishga qabul qilingan. 2012-yildan boshlab shu litseyda o‘qib, goboy cholg‘usini chaladi. Bu dargohda musiqiy bilimlarini puxta egallab, qator xalqaro va respublika tanlovlarida qatnashib, faxrli o‘rinlarni egallagan.

Jumladan, 2013-yil “San’at g‘unchalari” Respublika tanlovida 1-o‘rinni, 2017-yil shu tanlovda 2-o‘rinni, 2018-yil “San’at g‘unchalari” xalqaro tanlovida 3-o‘rinni, 2019-yil Yosh ijrochilar Respublika tanlovida 1-o‘ringa sazovor bo’ladi.

2019-yil O‘zbekiston davlat Konservatoriysi “Musiqa san’ati” fakultetiga imtiyozli qabul qilinadi. Oliygohda bir vaqtning o‘zida musiqashunoslik va gaboy ijrochiligi mutaxassisligini o‘zlashtiradi. 2020-yilning May oyida “Kitobxon Talaba” tanlovida 2-o‘rin, 2020-yil Iyun oyida “Biz nechun sevamiz O‘zbekistonni” tanlovida 3-o‘rin, 2021-yil mart oyida “GRAND MUSIC ART” Xalqaro tanlovida 3-o‘rin, 2021-yil Avgust oyida “12nd WORLD OPEN” nomli xalqaro tanlovda 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan.

2020-yilning Fevral oyidan boshlab “O‘zbekiston Davlat Filarmoniyasi”da Orkesterda Goboy cholg‘u ijrochisi bo‘lib, 2021-yilning Avgust oyidan boshlab 2022-yilning Oktabr oyiga qadar “Muqumiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali drama teatri”da ham Goboy cholg‘u ijrochisi sifatida ish tajribasini oshiradi.

Madina san’at bilan bir qatorda til o‘rganishga ham ishtiyoqi baland edi. Shu bois bolaligidan ingliz tilini qunt bilan o‘rganadi. Pandemiya vaqtida bundan tashqari “O‘zbekiston Davlat Filarmoniyasi” tomonidan tashkil qilingan xayriya konsertlariga doimiy ravishda ko‘ngillilar safida qatnashib kelgan.

2024-yilda “El-yurt umidi” jamg’armasi stipendantiga nomzod deb topilib Amerikaning Colorado shtatida magistratura uchun o‘qishga keldi. Madina o‘z sohasida yetuk bo‘lish maqsadida tinim bilmay mehnat qilmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning mehnatlari samarasi Colorado universitetida ham e’tiborga olinmoqda. Har yili o‘tzazib kelinadigan “International Double Reed Society” 54-marta o‘tkazilayotgan xalqaro konferenriyasida yakkaxon konsert berish imkoniyatini

qo‘lga kiritdi.



Madina bilan o‘tkazilgan suhbatda u quyidagicha so‘zlaydi. “Yurtimiz, O‘zbekstonda biz yoshlar uchun juda ko‘p imkoniyatlar yaratilgan. Bizdan talab qilinadigan yagona narsa albatta shu imkoniyatlarga loyiq bo‘lish uchun yaxshi o‘qish va o‘z ustimizda tinmay ishlashimiz kerak. Men O‘zbekiston davlat konservatoriyasida o‘qish davrimdan buyon berilgan imkonioylardan to‘liq foydalanishga xarakat qilaman. Mening yagona maqsadim o‘zbekistonda san’at xar tomonlama rivojlanganini dunyoga tanitish, men bu yo‘lda o‘z imkoniyatlarimni barchasini sarflashga xarakat qilmoqdaman xususan bu yili 2025-yil 10-14-iyun kunlarida Amerikaning Indiana shtati, Indianapolis shahri, Butler universitetida o‘tkaziladigan “International Double Reed Society” konferensiyasida o‘zimning yakkaxon konsertim davomida O‘zbek kompozitori Muhammadjon Otajonov ijodidan asarlarni Goboy cholg’usida ijro etib, O‘zbek musiqasi haqida ma’ruza qilaman.”<sup>2</sup>

<sup>2</sup> 25.12.2024 yil Rashidova Madina bilan o‘tkazilgan suhbat



Madinani kelgusi o‘qishlariga rivoj tilagan xolda uning orzulariga yetishish yo‘lida tilakdoshmiz. Tez orada o‘zbek qizi sharq yulduzi sifatida dunyo sahnalarida o‘z san’atini namoyish etadi degan umiddamiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 25.12.2024 yil Rashidova Madina bilan o’tkazilgan suhbat
2. WWW.WIKIPEDIA.UZ